



CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ASARIDA IJTIMOIIY MUAMMOLAR TALQINI

Jumayeva Sevara Musurmonqul qizi
Nuriddinov Jasmina To'liq qizi
Eshdavatova Gulsanam Xayrulla qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378212>

Annotatsiya: Ushbu tezida Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida yoritilgan ijtimoiy muammolar, xususan, ayollar huquqsizligi, ilmsizlik, erkak va ayol o'rtasidagi tengsizlik masalalari tahlil etilgan. Asarda Zebiniso, Qurbonbibi, Razzoq so'fi kabi obrazlar orqali o'sha davr ijtimoiy hayotidagi adolatsizlik, jaholat va diniy niqob ostidagi ikkiyuzlamachilik yoritib berilgan. Cho'lpon o'z asari orqali millatni uyg'otish, ilm-ma'rifatga da'vat etish va ayolning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatishga intilgan.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, Kecha va kunduz, ijtimoiy muammolar, ayollar huquqsizligi, bilimsizlik, Zebi obrazi, Razzoq so'fi, Akbarali mingboshi, erta turmush, erksizlik, roman-dilogiya.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani o'zbek adabiyotidagi ilk roman-dilogiya sifatida alohida o'rin tutadi[1]. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi "Kecha" 1933-1934-yillarda Moskvada yozilgan, ammo ikkinchi qismi — "Kunduz" bizgacha yetib kelmagan. Asarda XX asrning 30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ayollarning erksizligi, xalq orasidagi bilimsizlik va diniy mutaassiblik muammolari yoritilgan[3].

Yozuvchi Zebi (Zebiniso) obrazi orqali o'sha davr ayollarining fojiali taqdirini ko'rsatadi. U 15 yoshida Akbarali mingboshiga ixtiyorsiz uzatiladi. Bu holat asarda ikki asosiy muammoni ochib beradi: qizlarning erta turmushga berilishi va ayollarning huquqsizligi. Shu bilan birga, Qurbonbibi obrazi sabr-toqat, sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida gavdalanadi.

Razzoq so'fi esa diniy soxta taqvodorlik ramzidir. Cho'lpon uni "ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluqlardan biri" deb ta'riflaydi. Bu obraz orqali yozuvchi diniy niqob ortida yashiringan johillik va zo'ravonlikni fosh etadi. Qurbonbibi esa shunday kimsaning zulmi ostida yashasa-da, sabr va mehr bilan yashashda davom etadi.

Zebining suddagi holati asarda bilimsizlikning eng achchiq ifodasidir. Unga rus tilida hukm o'qilganda, u hech narsani tushunmaydi. Bu holat orqali adib xalqning ilmga befarqligini keskin tanqid qiladi. Cho'lponning "Maktab yo'q, bir to'yimni tugadi ming so'mga berur..." misralari aynan shu muammoni ifodalaydi.

Asarda ayollar erkinligi va ilmga chaqiriq g'oyasi ustuvor o'rin egallaydi. Adibning fikricha, agar ayol ma'rifatli bo'lsa, u jamiyatni o'zgartira oladi. Shu bois "Kecha va kunduz" nafaqat adabiy, balki ma'rifiy ahamiyatga ham ega asardir.

Dilmurod Qur'onov o'z tadqiqotida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini o'zbek adabiyotida nasriy fikrning yangi bosqichiga olib chiqqan asar sifatida baholaydi. Olimning fikricha, bu roman o'zbek romanchiligi tarixida birinchi roman-dilogiya sifatida alohida o'rin egallaydi[2].



Asarda milliy uyg'onish g'oyalari, ijtimoiy tengsizlik, ayollar huquqsizligi, ma'naviy inqiroz kabi masalalar yoritilgan bo'lib, muallif uni nafaqat badiiy asar, balki jamiyatni uyg'otuvchi ma'naviy manifest deb talqin qiladi.

Quronovning ta'kidlashicha, Cho'lpon romani orqali inson ruhiyati va jamiyat muammolari o'zaro uyg'unlikda tasvirlangan. Zebi, Qurbonbibi, Akbarali, Razzoq so'fi obrazlari orqali yozuvchi millatning ruhiy holatini ochib beradi.

Olim Zebi obrazini o'zbek ayolining uyg'onayotgan timsoli sifatida baholaydi. U ilmsizlik va jaholat qurboni bo'lsa-da, uning ruhiy iztiroblari orqasida yangi, ongli avlodning uyg'onishi ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, Razzoq so'fi obrazini "dinni niqob qilib olgan soxta taqvodor" sifatida tahlil qilib, Cho'lponning ma'naviy inqiroz va jaholatga qarshi keskin pozitsiyasini ko'rsatadi.

Asarda nutq va uslub jihatidan ham yangilik mavjud: Cho'lpon xalqona tilda, shevaga yaqin, ammo poetik ohangda yozadi. Bu, Quronov fikricha, "romanning tabiiyligi va hayotiy kuchini oshirgan."

Yakunda muallif "Kecha va kunduz" romanini millatning o'zligini anglash yo'lidagi eng muhim badiiy yutuqlardan biri deb baholaydi va Cho'lponni o'zbek modernizmining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etadi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari o'z davrining eng dolzarb muammolarini ko'taradi. Asarda ayollar erkinligi, ilmsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, jaholat kabi muammolar o'z ifodasini topgan. Asar millatni uyg'otish, ayolga hurmat bilan qarash, ilm va ma'rifatga da'vat etuvchi kuchli badiiy hamda ijtimoiy manifest sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cho'lpon. Kecha va Kunduz. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2021.
2. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent, 2010.
3. <https://uz.wikipedia.org>
4. <https://hikmatlar.uz>